



“QONUN USTUVOR - JAZO MUQARRAR: JINOYATGA QARSHI KURASHNING HUQUQIY VA IJTIMOYIY JIHLTLARI. O‘ZBEKISTON VA SINGAPUR DAVLATLARI MISOLIDA”

Ibragimov Diyorbek Shuhratovich

Ilmiy Rahbar O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi davlat-huquqiy fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Kushmakov Rasulbek Toshmatjonovich

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi 2-kurs “Prokurorlik faoliyati” yo‘nalishi talabasi.

Fayziyeva Mushtariy Xusniddin qizi

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi 2-kurs “Tergov faoliyati” yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada O‘zbekiston Respublikasida qonun ustuvorligi va jinoyatchilikka qarshi kurashning huquqiy va ijtimoiy jihatlari tahlil qilinadi. Singapur va boshqa Yevropa davlatlarining tajribalari bilan solishtirma o‘tkazilib, O‘zbekistonning jinoyatchilikka qarshi kurash tizimidagi yutuqlari va muammolari aniqlanadi. Zamonaviy kriminologik yondashuvlar, statistik ma‘lumotlar va huquqshunos olimlarning fikrlariga asoslanib, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *qonun ustuvorligi, jinoyatchilik, jazo, O‘zbekiston, Singapur, Yevropa, kriminologiya, profilaktika, jazo choralari, inson huquqlari.*

Qonun ustuvorligi va jinoyatchilikka qarshi kurash har qanday jamiyatning barqarorligi va rivojlanishi uchun muhim omillardan hisoblanadi. Qonun ustuvorligi jamiyatda adolat, tartib va inson huquqlarining himoyasini ta‘minlaydi, jinoyatchilikka qarshi kurash esa jamiyat xavfsizligini ta‘minlash va fuqarolarning osoyishtaligini kafolatlaydi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng, mamlakatda qonun ustuvorligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi xalqimizning tinch va farovon hayot kechirishini ta‘minlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, qonun ustuvorligini mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini takomillashtirishdan iborat.



Ushbu maqolada qonun ustuvorligi va jinoyatchilikka qarshi kurashning nazariy asoslari, O'zbekistonda bu sohadagi islohotlar, erishilgan yutuqlar va mavjud muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, Singapur va boshqa Yevropa davlatlarining tajribalari o'rganilinadi.

Qonun ustuvorligi - bu jamiyatda qonunning oliyligi va uning barcha uchun majburiyligini anglatuvchi huquqiy tamoyil. Ushbu tamoyilga ko'ra, hech kim, hatto davlat organlari va mansabdor shaxslar ham qonundan ustun emas va qonun talablariga rioya qilishlari shart. Qonun ustuvorligi demokratik jamiyatning muhim belgisi bo'lib, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, adolatni ta'minlash va jamiyatda barqarorlikni saqlash uchun zarurdir¹.

Jinoyatchilikka qarshi kurash esa qonun ustuvorligini ta'minlashning amaliy ifodasidir. Jinoyatchilik - bu qonun bilan taqiqlangan, jamiyatga va davlatga zarar yetkazuvchi xatti-harakatlar majmuidir. Jinoyatchilikka qarshi kurashish jinoyatlarning oldini olish, jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash, ularni javobgarlikka tortish va jazo choralarini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Qonun ustuvorligi va jinoyatchilikka qarshi kurash bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning samaradorligi bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Qonun ustuvorligi ta'minlangan jamiyatda jinoyatchilik darajasi past bo'ladi, chunki fuqarolar qonunlarga hurmat bilan qarashadi va ularni buzishdan qo'rqishadi. Shu bilan birga, jinoyatchilikka qarshi kurashning samaradorligi qonun ustuvorligini mustahkamlashga xizmat qiladi, chunki jinoyat sodir etgan shaxslarning qonuniy jazolanishi qonunlarga bo'lgan ishonchni oshiradi va boshqa fuqarolarni ham qonunlarga rioya qilishga undaydi.

Bundan bir necha asrlar muqaddam, Abu Nasr Farobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida "Qonunlari kuchli davlat qudratli bo'ladi, qonunlari ustuvor shahar mukammal shahardir" – deb ta'kidlab o'tgan.

Huquqshunos olim A.Saidovning ta'kidlashicha, "Qonun ustuvorligi jinoyatchilikka qarshi kurashning eng samarali vositasidir. Qonunlarning adolatligi va ularning barcha uchun majburiyligi ta'minlangan jamiyatda jinoyatchilik uchun sharoit yo'qoladi" (Saidov, 2018)².

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida keng ko'lami islohotlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat.

¹ A. Saidov, N. Jumanova, Sh. Yuldashev. "Davlat va huquq asoslari" darsligi. Toshkent, 2020. 45-47-betlar.

² Saidov, A. (2018). Jinoyatchilikka qarshi kurashda qonun ustuvorligining roli. Huquqshunoslik, (4), 25-32.



- **Qonunchilik bazasini takomillashtirish.** Jinoyat kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va boshqa qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Bu o'zgarishlar jinoyatlarning oldini olish, jinoyat sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish va jazo choralarini qo'llash mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan.

- **Sud-huquq tizimini isloh qilish.** Sudlarning mustaqilligi va xolisligi ta'minlandi, sud jarayonlarining ochiqligi va shaffofligi oshirildi, advokatura institutining roli kuchaytirildi. Bu o'zgarishlar fuqarolarning sudga bo'lgan ishonchini oshirish va adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

- **Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish.** Ichki ishlar organlari, prokuratura va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati tubdan qayta ko'rib chiqildi. Ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlandi, xodimlarining malakasi oshirildi, ularning faoliyatida qonuniylik, insonparvarlik va shaffoflik tamoyillariga qat'iy rioya etilishi ta'minlandi.

- **Jinoyatchilikning oldini olish tizimini rivojlantirish.** Profilaktika inspektorlari faoliyati takomillashtirildi, mahalla institutining roli kuchaytirildi, yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha ishlar kuchaytirildi. Bu choralar jinoyatchilikning oldini olish va uning ildizlariga qarshi kurashishga qaratilgan.

- **Xalqaro hamkorlikni kengaytirish.** Jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlik rivojlantirildi. O'zbekiston Respublikasi BMT, YXHT, MDH va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda terrorizm, ekstremizm, giyohvandlik vositalari va odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha qo'shma tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bu hamkorlik doirasida O'zbekiston xalqaro andozalarga mos keladigan qonun hujjatlarini qabul qildi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini xorijiy davlatlarda malaka oshirishga yubordi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha qo'shma operatsiyalar o'tkazdi.

Misol uchun, 2022-yilda O'zbekiston va Rossiya huquqni muhofaza qilish organlari hamkorlikda xalqaro terrorchilik tashkiloti a'zolarini qo'lga olish bo'yicha qo'shma operatsiya o'tkazdilar. Ushbu operatsiya natijasida bir qancha terrorchilar qo'lga olindi va ularning jinoiy faoliyati to'xtatildi. Bu xalqaro hamkorlikning jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar natijasida jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Jinoyatlar soni kamaydi, jinoyat ishlarini tergov qilish va sudga ko'rib chiqish



sifati yaxshilandi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish darajasi oshdi. Shu bilan birga, jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida hali ham bir qator muammolar mavjud. Jumladan, iqtisodiy jinoyatchilikning yuqori darajasi. Korrupsiya, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, noqonuniy tadbirkorlik, firibgarlik, jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirish kabi iqtisodiy jinoyatlar jamiyatga jiddiy zarar yetkazmoqda. Bu jinoyatlar nafaqat davlat byudjetiga zarar keltiradi, balki sog'lom raqobat muhitini buzadi, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi va ijtimoiy adolatni poymol etadi.

Korrupsiya jinoyatchilikning eng xavfli turlaridan biri bo'lib, u davlat boshqaruvi tizimini yemiradi, iqtisodiyotni rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va ijtimoiy adolatni buzadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qator chora-tadbirlar ko'rilgan bo'lsa-da, bu illat hali ham jamiyatimizda jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Transparency International tashkilotining 2022-yilgi Korrupsiyani idrok etish indeksida O'zbekiston 180 davlat orasida 146-o'rinni egalladi, bu korrupsiya muammosining jiddiyligini ko'rsatadi³.

Ko'pgina fuqarolar o'z huquq va majburiyatlarini yetarlicha bilishmaydi, qonunlarga hurmat bilan qarashmaydi va ularni buzishdan qo'rqishmaydi. Bu esa jinoyatchilikning oshishiga olib keladigan omillardan biridir. Axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan kiberjinoyatchilik, internet orqali firibgarlik, terrorizm va ekstremizm kabi yangi jinoyatchilik turlari paydo bo'lmoqda. Bu jinoyatlarga qarshi kurashish uchun yangi usullar va yondashuvlarni ishlab chiqish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini yangi ko'nikma va malakalar bilan ta'minlash talab etiladi.

Xorijiy tajribaga murojaat etilganda ko'rishimiz mumkinki, Singapur - qonun ustuvorligi va jinoyatchilikka qarshi kurashning namunasi hisoblanadi. Singapur dunyodagi eng xavfsiz va eng kam korrupsiyalashgan davlatlardan biri sifatida tan olingan. Bu muvaffaqiyatga erishishda qonun ustuvorligi tamoyilining qat'iy amal qilishi, jinoyatchilikka qarshi kurashning samarali tizimi va jamiyatning yuksak huquqiy ongi va madaniyati muhim rol o'ynagan⁴.

Singapur tajribasining o'ziga xos xususiyatlari haqida biroz izlanish qilsak. Birinchidan, Singapurda **qonunlar qat'iy va ularning ijrosi izchil ravishda amalga oshiriladi**. Singapurda jinoyatlar uchun qattiq jazo choralari qo'llaniladi. Bu, bir tomondan, jinoyatchilik darajasini pasaytirishga yordam

³ Transparency International. (2022). Corruption Perceptions Index 2022. <https://www.transparency.org/en/cpi/2022>

⁴ Jumayev, A. (2020). Singapur tajribasi asosida O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish. Huquq va jamiyat, (3), 45-52.



beradi, boshqa tomondan esa, fuqarolarni qonunlarga qat'iy rioya qilishga undaydi. Masalan, giyohvand moddalar bilan bog'liq jinoyatlar uchun **o'lim jazosi** qo'llanilishi mumkin⁵.

Ikkinchidan, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, **korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash** Singapurning eng muhim yo'nalishlaridan edi. Singapur hukumati korrupsiyaga qarshi kurashni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olgan. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar uchun og'irjazo choralari qo'llaniladi, davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulki qat'iy nazorat qilinadi. Transparency International tashkilotining 2022-yilgi Korrupsiyani idrok etish indeksida Singapur 180 davlat orasida 5-o'rinni egallaganligi ham so'zimizning isboti hisoblanadi⁶.

Shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yuqori professionalligi va texnik jihozlanganligi omili ham muhim ahamiyat kasb etadi. Singapur politsiyasi va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari yuqori malakaga ega bo'lib, ularning ish faoliyati zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlangan. Bu jinoyatlarni tezkorlik bilan fosh etish va jinoyatchilarni javobgarlikka tortish imkonini beradi. Bundan tashqari, jamiyatning yuksak huquqiy ongi va madaniyati shakllanganligi qonun ustuvorligini ta'minlash va huquqbuzarliklar uchun jazo choralari qo'llashda bir qancha yengilliklar beradi. Singapurda fuqarolar qonunlarga hurmat bilan qarashadi va ularni buzishdan qo'rqishadi. Bu jamiyatda jinoyatchilikning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston, Singapur va Yevropa davlatlarining jinoyatchilikka qarshi kurashish va qonun ustuvorligini ta'minlash borasidagi tajribalarini qiyosiy tahlil qilish orqali har bir modelning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash, shuningdek, O'zbekiston uchun eng maqbul yondashuvlarni ishlab chiqish mumkin. O'zbekistonda jinoyatchilikka qarshi kurashish va qonun ustuvorligini ta'minlash sohasida so'nggi yillarda sezilarli islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar natijasida jinoyatchilik darajasi pasaydi, sud-huquq tizimi takomillashtirildi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati shaffoflashtirildi va aholi o'rtasida huquqiy ong va madaniyatni oshirishga qaratilgan ishlar kuchaytirildi.

⁵ The Singapore Approach to Criminal Justice: A Critical Appraisal (2017). Asian Journal of Criminology, 12(2), 101-120.

⁶ Singapore's Corruption Control: A Model for Other Countries? (2018). Journal of Financial Crime, 25(4), 1082-1099.



Singapurda qonun ustuvorligi va jinoyatchilikka qarshi kurashning o'ziga xos modeli yaratilgan bo'lib, u qat'iy qonunlar, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yuqori professionalligi va jamiyatning yuksak huquqiy ongi va madaniyati kabi omillarga asoslanadi. Bu model natijasida Singapur dunyodagi eng xavfsiz va eng kam korrupsiyalashgan davlatlardan biriga aylandi⁷.

Yevropa davlatlarida jinoyatchilikka qarshi kurashish va qonun ustuvorligini ta'minlashning turli modellari mavjud. Bu modellar inson huquqlariga rioya qilish, jinoyatchilikning oldini olish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yuqori malakasi, jamoatchilik ishtiroki va qayta ijtimoiylashtirish kabi umumiy tamoyillarga asoslanadi. Biroq, har bir davlat o'zining tarixiy, madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqib, bu tamoyillarni turlicha qo'llaydi.

Bugungi kunda sodir etilayotgan turli va yangicha jinoyat turlariga dunyo mamlakatlari tajribasida har xil yondoshuvlarni uchratish mumkin. Masalan, Buyuk Britaniyada politsiya keng ko'lamda videokuzatuv tizimlaridan foydalanadi. London shahri bo'ylab o'rnatilgan minglab kameralar jinoyatlarni fosh etish va jinoyatchilarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. 2011-yilda Londonda sodir bo'lgan tartibsizliklar paytida politsiya videokuzatuv yozuvlaridan foydalanib, yuzlab ishtirokchilarni aniqladi va ularni javobgarlikka tortdi⁸.

AQShda biometrik identifikatsiya tizimlari chegaralarni nazorat qilishda keng qo'llaniladi. Chet el fuqarolari mamlakatga kirishda barmoq izlari va yuzlarini skaner qilish orqali tekshiriladi. Bu esa terrorchilar va boshqa xavfli jinoyatchilarning mamlakatga kirishiga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi⁹.

Niderlandiyada politsiya dronlardan foydalanib, jinoyat joylarini tekshiradi va qidiruv ishlarini olib boradi. Dronlar jinoyatchilarni ta'qib qilish va ularni qo'lga olishda ham samarali qo'llaniladi¹⁰.

Xitoyda esa sun'iy intellekt jinoyatchilik tendentsiyalarini tahlil qilish va jinoyatlarni oldindan aytib berishda qo'llaniladi. Bu texnologiya politsiyaga

⁷ Quah, J. S. T. (2017). Rule of Law in Singapore: A Study in Elite Construction of Social Order. *Asian Journal of Law and Society*, 4(1), 1-27.

⁸ Clive Norris and Gary Armstrong. *The Surveillance State: CCTV, Policing and the Control of Public Space in Britain* 2013.

⁹ National Institute of Standards and Technology (NIST). (2022). *Face Recognition Vendor Test (FRVT) Part 6: Report on Ongoing Face Recognition Accuracy, Demographic Effects, and Mask Effects*.

¹⁰ "UAV-assisted real-time evidence detection in outdoor crime scene investigations" (2023) by PMC.



jinoyatchilikning oldini olish va jinoyatchilarni tezkorlik bilan qo'lga olish imkonini beradi¹¹.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish va jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin. Dastlab, iqtisodiy jinoyatchilikka va korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini yanada takomillashtirish. Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish uchun maxsus tuzilmalar tashkil etish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash va noqonuniy tadbirkorlikka qarshi kurashni kuchaytirish, soliq tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatini takomillashtirish. Soliq to'lovchilarga soliq qonunchiligi bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish, soliq organlari faoliyatini shaffoflashtirish va soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish. Bu esa iqtisodiyotni rivojlantirishga va jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, "Qonun ustuvor - jazo muqarrar" tamoyili har qanday huquqiy davlatning asosiy tamoyillaridan biridir. Ushbu tamoyilni hayotga tatbiq etish orqali jamiyatda qonun ustuvorligi ta'minlanadi, jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish samaradorligi oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida qonun ustuvorligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar natijasida jinoyatchilik darajasi pasayib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish darajasi oshdi. Biroq, hali ham bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rish zarur.

"Qonun ustuvor - jazo muqarrar" tamoyilini hayotga to'liq tatbiq etish orqali biz xalqimizning tinch va farovon hayot kechirishini, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni, jamiyatda adolat va barqarorlikni ta'minlashni ko'zlaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "UAV-assisted real-time evidence detection in outdoor crime scene investigations" (2023) by PMC.

¹¹ Carnegie Endowment for International Peace. "China's Use of Artificial Intelligence in Crime Prevention and Control" 2021.



2. A. Saidov, N. Jumanova, Sh. Yuldashev. "Davlat va huquq asoslari" darsligi. Toshkent, 2020. 45-47-betlar.
3. Carnegie Endowment for International Peace." China's Use of Artificial Intelligence in Crime Prevention and Control" 2021.
4. Clive Norris and Gary Armstrong. The Surveillance State: CCTV, Policing and the Control of Public Space in Britain 2013.
5. Jumayev, A. (2020). Singapur tajribasi asosida O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish. Huquq va jamiyat, (3), 45-52.
6. National Institute of Standards and Technology (NIST). (2022). Face Recognition Vendor Test (FRVT) Part 6: Report on Ongoing Face Recognition Accuracy, Demographic Effects, and Mask Effects.
7. Quah, J. S. T. (2017). Rule of Law in Singapore: A Study in Elite Construction of Social Order. Asian Journal of Law and Society, 4(1), 1-27.
8. Saidov, A. (2018). Jinoyatchilikka qarshi kurashda qonun ustuvorligining roli. Huquqshunoslik, (4), 25-32.
9. Saidov, A. "Qonun ustuvorligi va jinoyatchilikka qarshi kurash". Adolat. Toshkent - 2018
10. Singapore's Corruption Control: A Model for Other Countries? (2018). Journal of Financial Crime, 25(4), 1082-1099.
11. The Singapore Approach to Criminal Justice: A Critical Appraisal (2017). Asian Journal of Criminology, 12(2), 101-120.
12. Xudoyberdiyev, R. O'zbekistonda jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va tashkiliy asoslari. Toshkent-2019

